

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-dekabrda Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi joriy narxlarda 37 593,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 4,1 % ga ko'paydi.

2019 yilning yanvar-dekabr yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 9793,9 ming. so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 1,9 % ga ko'paygan.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakllantirishda Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 7,3 % ni tashkil etdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	Mlrd. so'm		2018 yil yanvar-dekabr nisbatan, % da
	2018 yil yanvar-dekabr	2019 yil yanvar-dekabr	
<b>I. YaHM</b>	<b>31 233,5</b>	<b>37 593,9</b>	<b>104,1</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	30 659,5	36 479,7	104,0
Mahsulotlarga sof soliqlar	574,0	1 114,2	105,9
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>30 659,5</b>	<b>36 479,7</b>	<b>104,0</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	15 350,5	17 481,5	102,2
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	6 264,2	7 604,5	108,0
sanoat	4 769,6	5 759,6	106,1
qurilish	1 494,6	1 844,9	114,1
<b>Xizmatlar</b>	<b>9 044,8</b>	<b>11 393,7</b>	<b>104,4</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 980,1	2 375,4	104,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 106,4	2 342,1	103,9
boshqa xizmat tarmoqlari	4 958,3	6 676,2	104,6

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati - 102,2 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 47,9), sanoat – 106,1 %, (15,8 %), qurilish – 114,1 % (5,1 %) va xizmatlar sohasi 104,4 % (31,2 %) ni tashkil etdi.

### 2019 yilning yanvar-dekabrida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




### Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,0 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,0 % ni tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining YaHM tarkibidagi ulushi 2,2 % punktga kamaydi va hisobot yilida 47,9 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining YaHMdagi ulushi 0,4 % punktga ko'paydi va hisobot yilida 20,9 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi esa 31,2 % ni tashkil etib 2018 yilning mos davri (29,4 %) bilan taqqoslanganda 1,8 % punktga ko'paydi.

## Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-dekabr



2019 yil yanvar-dekabr




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 6,5 % ni (2018 yil yanvar-dekabr – 6,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,4 % ni (6,9 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 18,3 % ni (16,0 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi  
(jamiga nisbatan foizda)**

2018 yil yanvar-dekabr



2019 yil yanvar-dekabr



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Samarqand viloyat statistika boshqarmasi.  
Statistika faoliyatini tashkil etish  
va yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: D.Almatov  
(71) 230-85-19